

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA  
KIRUVCHILAR UCHUN**

**SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo \_\_\_\_\_

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.**

**Kitob tipi: 32**

FANLAR:

*Blok 1: Ona tili va adabiyot*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: 1701322

Toshkent – 2017

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. To't o'rinda yasama so'zlar bilan ifodalangan hollar ishtirok etgan gapni aniqlang.  
 A) *Buxoroga omon-eson yetib borganlaridan so'ng uning tarhini yaxshilab qog'ozga chizishini aytди.*  
 B) *Shu payt yotog'imizdan bolalar ham birin-ketin ko'zlarini ishqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshlashdi.*  
 C) *Saharlab choyni naridan beri ichib, otxonaga yugurdim.*  
 D) *G'uvullab uchayotgan bo'ron ichida yigilar naridan beri bedalarni arava tagiga olib kirishdi.*
2. Uyushiq aniqlovchi mavhum otlar bilan ifodalangan gapni belgilang.  
 A) *Bolajon o'zbek xalqi voqeа tagida haqiqat va o'zbekona fe'l-atvor borligiga ishonadi.*  
 B) *Iste'dod egasi o'zi yaratgan ma'naviy va moddiy boylikdan o'zi ham bahramand bo'lischga haqli.*  
 C) *Insonning yoshlikda yo'l qo'ygan xatosi, bilib-bilmay qilgan gunohi yoshi ulg'ayganida o'z natijasini beradi.*  
 D) *Qattiq qo'rqish va vahimaning zo'ridan oyoq-qo'lim bo'shashib, tilim kalimaga kelmay goldi.*
3. Qaysi gapda yasama so'zni tobelantrigan ibora ishtirok etgan?  
 A) *Haqiqiy vatanparvarlar jon kuydirib mehnat qilishdan aslo charchamaydilar.*  
 B) *Vatanga bo'lgan muhabbatim meni xorijliklar yutug'idan ko'z yumishga majbur qilmaydi.*  
 C) *O'z vataniga dog' tushirish uni sotish degan so'z.*  
 D) *Vatanni ko'z qorachig'iday asrashni ma'rifatli millatlardan o'rganish kerak.*
4. **Jadval** so'zidagi 1 undoshis qaysi xususiyatiga ko'ra boshqa undoshlarning hech qaysisi bilan bir umumiy guruhga mansub bo'la olmaydi?  
 A) *hosil bo'lisch o'rniqa ko'ra*  
 B) *jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra*  
 C) *hosil bo'lisch usuliga ko'ra*  
 D) *shovqinli yoki sonorligiga ko'ra*
5. Quyidagi qaysi gap(lar)da fonetik hodisa asosida yozilgan so'z yasovchi qo'shimcha qatnashmagan?  
 1. Kel, o'zbek qardoshim, aziz qo'nog'im bo'l.  
 2. Ko'rpaning guldar qavig'i hammani qiziqqtidi.  
 3. O'ynoqi misuqa sadolari o'tirgalarning mudroq kayfiyatini tarqatdi.  
 4. O'tovda chordana qurib o'tirgan chol asta o'midan qo'zg'ab qo'ydi.  
 A) 3 B) 1, 2, 4 C) 1, 2, 3 D) 4
6. Agar sen go'daklik zamoniningda onang sen bilan qanday his kechirganini, o'zining esa osmon bilan yerning farqini bilmaydigan bir chaqaloq bo'lganiningni bilishni istasang, atrofingdag'i onalarga qara, ularning qo'llaridagi chaqaloqlarga nazar sol, shunda sen o'z go'dakligining yorqin tasavvur qilasan va o'zing bundan xulosa chiqarib olasan.  
 Ushbu murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimlari haqida berilgan qaysi hukm to'g'ri emas?  
 A) *barcha kesimlar sof'fe'l bilan ifodalangan*  
 B) *shart, buyruq-istik, xabar mayli se'llari bilan ifodalangan*  
 C) *kesimlari musatqil va nomustaqil kesimlarga mansub*  
 D) *kesimlar har xil shaxs-son ma'nosidagi fe'llar bilan ifodalangan*
7. Insonlar istaydiki, yer yuzi gulbog'ining musaffo havosidan hamma bo'lsin bahramand.  
 Ushbu gap haqida to'g'ri fikrni aniqlang.  
 A) *Ergash gapning ham, bosh gapning ham egasi bir xil so'z turkumiga oid.*  
 B) *To'diruvchi ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.*  
 C) *Qaratqich aniqlovchilar faqat qaratqich aniqlovchiga tobelangan.*  
 D) *Ergash gap qismida barcha gap bo'laklari kesimiga bevosita bog'langan.*
8. Berilgan paronim juftiga ega omonim so'zlarni aniqlang.  
 1) **shoh**; 2) **asr**; 3) **soch**; 4) **rux**; 5) **sanat**; 6) **tus**  
 A) 3, 4, 5, 6 B) 2, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 4, 5
9. Berilgan so'zlardan qaysilari qismlaridan biri omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan, bir xil so'z turkumi kompozitsiyasidan hosil qilingan qo'shma otlar hisoblanadi?  
 1) gulbeor; 2) atrigul; 3) toshbag'ir; 4) qo'yko'z; 5) belbog'; 6) bodomqovoq;  
 7) laylakqor  
 A) 3, 4, 5, 6 B) 1, 3, 5 C) 2, 5, 7 D) 1, 2, 6, 7

10. Tut pishig'ida ko'rishgandik.  
 Berilgan gapda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?  
 A) metonimiya B) metafora C) sinekdoxa D) vazifadoshlik
11. Taqlid so'z eganing aniqlovchisi vazifasini bajargan gapni aniqlang.  
 A) *Jigarim otashga tegardi jiz-jiz, Sochlarim oqargan shunda, ehtimol.*  
 B) *Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda qo'ng'ir-qo'ng'ir ovozdan uyg'onib ketdim.*  
 C) *Qirlarning g'ir-g'ir shamoli, o'pkalarga moydek tuyilgan totli havosi hammamining ruhimizni ko'tarib yubordi.*  
 D) *Chiqib ketayotganida chol-kampir pichir-pichir qilayotganini sezdim.*
12. To'tini o'z ismini aytishga o'rgatishadi. Ismni ko'p qaytarishadi. Keyin bir kuni, ehtimol, bexosdanmi yoki o'z kayfiyatini bildirish uchunmi, u talab qilinayotgan so'zni aytib yuboradi va shu ondayoq mukofot oladi.  
 Berilgan parchadagi fe'llar tarkibida qaysi nisbat qo'shimchasi qatnashmagan?  
 A) o'zlik B) majhul C) birgalik D) ortitma
13. Bo'ri ta'qibi borgan sari kuchaydi. Kiyikcha toliqa boshladi. Shu sababli ancha orqada qoldi. Ota-onasi unga qaramay qochishardi. Kiyikcha ota-onasidan butunlay ajralib qolishini his qila boshladi. Hay, biroz sekinroq yursalaring-chi! Picha sabr qiling, yetib olay, butunlay holdan toydim-ku! Tashlab ketmanglar!  
 Ushbu parchada ravishing nechta ma'no turi qatnashgan?  
 A) 5ta B) 4ta C) 3ta D) 2ta
14. Tilning mana shu yetukligi uning go'zalligini va foydalanuvchining, ya'ni so'zlovchi yoki yozuvchining nutqiy mahoratini ta'minlaydi.  
 Ushbu gapdag'i bog'lovchilar haqida bildirilgan to'g'ri hukmlarni belgilang.  
 1) biriktituv bog'lovchisi uyuishiq vositasiz to'ldiruvchilarini bog'lash uchun qo'llangan; 2) aniqlov bog'lovchisi uyushiq aniqlovchilarni bog'lash uchun qo'llangan; 3) ergashtiruvchi bog'lovchi ajratilgan uyushiq aniqlovchini ajratish uchun qo'llangan  
 A) 1, 2, 3 B) 1, 2 C) 1, 3 D) 2, 3
15. Aralash murakkab qo'shma gap keltirilmagan javobni belgilang.  
 A) *Ergash unga shunday qaradiki, bu nazarni hamma payqadi, ammo shovshuv tinmadи.*  
 B) *Qayerda mehnat yaxshi tashkil qilingan bo'lса, jamoa a'zolari o'rtasida ahillik va hamjihatlik bo'lса, u yerda yashash ham zavqli bo'ladi.*  
 C) *Agar so'z qalbdan chiqib kelsa, eshituvchining qalbiga darrov ta'sir qiladi, ammo tildan sodir bo'lса, qulogdan nariga o'tmaydi.*  
 D) *Bilingki, kim olg'a yurmasa, keyingi sayohatga bormaydi, shuning uchun tez-tez harakat qiling.*
16. Barcha so'zlar to'g'ri yozilgan javobni belgilang.  
 A) xatto, muxojir, zaxmatkash  
 B) hatto, muhojir, zaxmatkash  
 C) hatto, muhojir, zahmatkash  
 D) xatto, muhojir, zahmatkash
17. Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lasi bir mayin,  
 Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allalayin.  
 Dudog'ing guldan xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,  
 Kel oppog'im, bag'trimga jajji boshginangni qo'y.  
 She'riy parchadagi vergullarning qo'llanishi haqidagi hukmlardan qaysilari to'g'ri?  
 1. Vergul undalmalarni ajratish uchun qo'llangan. 2. Uyushiq ega qatnashganligi uchun vergul qo'llangan. 3. Ajratilgan bo'laklar mavjudligi uchun vergul qo'llangan. 4. Vergul qo'shma gap qismlarini ajratish uchun qo'llangan  
 A) 1, 4 B) 1, 2, 4 C) 1, 3, 4 D) 2, 3
18. - Bolajonim, o'z umrimni ilm sirlarini o'rganishga sarf qildim. Ilm nuri bilan mushkul tugunlarni yechdim, ammo o'limga davo topolmadim.  
 Keltirilgan parchadagi aniqlovchili birikmalar sonini toping.  
 A) 4 B) 3 C) 2 D) 1
19. Berilgan she'riy parchadagi sifatlar qanday gap bo'lakalari vazifasida kelgan?  
 Yaxshiga yaxshi nom fe'lidan yetar,  
 Sha'niga barcha el rahmatlar aytar,  
 Yomon bag'rini tosh aylasa, yaxshi -  
 Yurak qo'ri bilan toshni eritar.  
 A) *vositasiz to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, ega*  
 B) *vositali to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, kesim*  
 C) *vositasiz to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, kesim*

- D) vositali to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, ega
- 20.** Qaysi gapda uyushgan nomustaqlil to'ldiruvchi qo'llangan?  
 A) *Farzandlarimizga til, kash o'rganishning payida bo'laylik*.  
 B) *O'zidan yaxshi nom qoldirgan inson izzat-ikromga, xotirlab turishga loyiqdir*.  
 C) *Umurzoq konvertni ham, mayda-mayda qilib yozilgan oq qog'ozni ham, cheti qora hoshiyali mushti rang qog'ozni ham ko'rdi*.  
 D) *Ular o'zlarining eng nodir asarlarida do'stlikni, mehr-muhabbatni zavq bilan ulug'laganlar*.
- 21.** Quyidagi qo'shma gapda gap bo'laklari necha o'rinda so'z birikmasini hosil qilgan?  
 Quyosh, oy hamda yulduzlar bitta umumiy qoidaga itoat etidi va ular bu qoidalardan qilcha ham chetlashmaydi.  
 A) 7 B) 5 C) 4 D) 6
- 22.** Yunonistonlik faylasuf Arastu o'g'lini chaqirib shu so'zlarni aytibdi: -  
 Bolajonim, o'z umrimni ilm-u hikmatning sirlarini o'rganish yo'lida sarf qildim. Ilm-u hikmat nuri bilan juda ko'p tugunlarni yechdim, ammo o'limga chora yo'q ekan.  
 Keltirilgan parchada necha o'rinda yasama so'z qo'llangan.  
 A) 4 B) 3 C) 5 D) 2
- 23.** Shabl yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan so'z yasovchi qo'shimcha(lar) qatnashgan gaplarni aniqlang.  
 1. Vatan - kelinchakning orzulari qanotida parvoz etib kirgan eshigi.  
 2. Qizcha qo'g'irchog'ini astagina yotqizib qo'ydi.  
 3. Chaqin bo'lma, bo'lma guldurak.  
 4. Sotqinlarga safimizda o'ren yo'q.  
 A) 3, 4 B) 1, 3 C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3
- 24.** U akalari bilan suvsiz cho'lga suv chiqaribdi. Hamma yerni gullagan bog'ga aylantiribdi. Shunda yurtni sonsiz yov bosibdi. Dushmanlar ekinzorlarni ayovsiz paymon qilishibdi, daraxtlarni yoqib yuborishibdi.  
 Ushbu gapdagisi yasama so'zlar sonini belgilang.  
 A) 7 B) 5 C) 4 D) 6
- 25.** "Sohibqiron" dramasida o'zini "Men shahri Keshdan. Otam sizga sarboz bo'lgan. Dehli jangida shahid ketgan..." deb tanishtirgan qahramonning ismi nima edi?  
 A) *Qosimbek* B) *Kayxisrav* C) *Aloviddin* D) *Barlos Bahodir*
- 26.** O'ta mavhum tuyg'u bo'lgan sevgini "yorilmagan yaraday" deya tasvirlagan?  
 A) *Muhammad Yusuf* B) *Usmon Nosir* C) *Abdulla Oripov* D) *Erkin Vohidov*
- 27.** Qaysi asarda toza, xushta'm o'riklarning shoxini kesib tashlab, uni achchiq danak o'rik shoxiga, o'sgan nihollarning ho'l shoxini kesib, quruq shoxiga payvand qiluvchi ahmoq bog'bon haqidagi hikoyat keltirilgan?  
 A) *Sa'diy Sheroyziy, "Bo'ston"*  
 B) *Alisher Navoiy, "Hayrat ul-abror"*  
 C) *Gulxaniy, "Zarbulmasal"*  
 D) *Xoja, "Miftoh ul-adl"*
- 28.** Asqad Muxtor ning bir xil janrga mansub bo'lmagan asarlari berilgan javobni aniqlang.  
 A) "G'alaba ishonchi", "Tilak"  
 B) "Tug'ishganlar qaytdi", "Mardlik cho'qqisi"  
 C) "Yulduzim", "Totli damlar"  
 D) "Jangehining bayram kechasi" "Tone edi"
- 29.** Qaysi javobda R. Thokurning Xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan she'riy to'plami nomi berilgan?  
 A) "Suratlar va qo'shiqlar"  
 B) "Tonggi qo'shiqlar"  
 C) "Chitrangoda"  
 D) "Gitanjali"
- 30.** Quyidagi berilgan fikrlar qaysi ijodkorga tegishli?  
 "Bolalikda shuurga singdirilgan ona tiligina qalbni she'riyat bilan sug'orishi, insonda milliy g'urur kurtaklarini uyg'otishi va ajodolar tilining naqadar serqirra va sermazmun ekanligini anglatishi mumkin. Bolalik nafaqat quvnoq davr, bolalik – inson shaxsi shakllanishining ilk davri hamdir".  
 A) *T. Malik* B) *O. Sharafiddinov* C) *M. Osim* D) *Ch. Aytmatov*
- 31.** "U hayotining ko'plab qiyinchiliklariga, taqdirding son-sanoqsiz sinovlariga duch keladi. To'ng'ich o'g'lining bevaqt vafoti, akasi Farhodbiyning Buxoro hukmdori Abulfayzxon qo'lida katta amaldorlardan biri bo'lismiga qaramay, qatl etilishi shunday og'ir sinovlardan edi".  
 Ushbu ma'lumotlar qaysi ijodkor hayotiga aloqador?  
 A) *Xo'janazar Huwaydo*  
 B) *Gulxaniy*  
 C) *So'fi Olloyor*  
 D) *Poshshoxo'ja Abdulvahobxo'ja o'g'li Xo'ja*
- 32.** 1000000 misradan ortiqroq she'r yozgan, lekin bizgacha 2000 misraga yaqin she'r yetib kelgan shoir nomini ko'rsating.  
 A) *Fuzuliy* B) *Rudakiy* C) *Rumiyy* D) *Sa'diy*
- 33.** Har kima bo'lsa tabiat o'z yemak,  
 Ollina kelsa mashaqqat sabr etar,  
 Kim badan beslar esa keng aysh uza,  
 Toryerga o'g'rasa eldan kelar.  
 Ushbu she'r Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asaridagi qaysi hikoyat xulosasi sifatida keltiriladi?  
 A) *Tuz haqini to'lagan No'shiravoni odil haqidagi hikoyat*  
 B) *Sayohatga chiqqan ikki xurosoniy faqir haqidagi hikoyat*  
 C) *Bir kurashchi pahlavon hamda uning oqibatsiz shogirdi haqidagi hikoyat*  
 D) *O'g'ri va tilanchi haqidagi hikoyat*
- 34.** O'z ma'shuqasini ilk bora tushida ko'rgan badiiy qahramonni aniqlang.  
 A) *Suhayl ("Suhayl va Guldursun")*  
 B) *Ravshan ("Ravshan")*  
 C) *Farhod ("Farhod va Shirin")*  
 D) *Rustamxon ("Rustamxon")*
- 35.** Hasbi hol yo'nalishidagi quyidagi misralar qaysi shoira qalamiga mansub?  
 Yigirma yil maktab ochdim qizlara,  
 Hirsim baland bo'ldi doyim ash'ora.  
 O'zum bitdim mingdin ortuq g'azalni,  
 Zikr etib o'tdim oxir azalni.  
 A) *Dilshodi Barno* B) *Nodira* C) *Anbar Otin* D) *Jahon Otin Uvaysiy*
- 36.** Begona bo'lubdur oshnodin,  
 Begonag'a oshno bo'lubdur.  
 Ushbu misralarda qanday badiiy san'atdan foydalilanilgan?  
 A) *tashxis, tazod* B) *tardi aks, tazod* C) *tanosub, tajnis* D) *tarse' tanosub*
- ### BIOLOGIYA
- 37.** Qora tanali, normal qanotli(otasi kalta qanotli) oq ko'zli urg'ochi drozofila pashshasi qanday tipidagi gametalarni hosil qilishi mumkin?  
 A) *aBX<sup>d</sup>, aBX<sup>D</sup>*  
 B) *abX<sup>d</sup>, abX<sup>d</sup>*  
 C) *ABX<sup>d</sup>, abX<sup>d</sup>*  
 D) *aBX<sup>d</sup>, abX<sup>D</sup>*
- 38.** Tishlarning qoramir rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchisi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oиласида tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada tug'iladigan farzandlarning necha foizida belgining faqat X xromosoma orqali irtisanadigan turi mavjud bo'ladi?  
 A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
- 39.** Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malla, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lismeni ta'minlasa, AaBb x aaBb genotipli organizmlar o'zaro chatishirilgandan olingan avlodning genotip (I) va fenotip (II) nisbatlarini aniqlang.  
 A) *a-3:1:2:1:1; b-4:2:1:1*  
 B) *a-1:1:1:3:1:1; b-2:4:1:1*  
 C) *a-2:2:2:1:1; b-3:2:2:1*  
 D) *a-1:2:1:1:2:1; b-3:1:3:1*
- 40.** DNK qo'sh zanjirida 180 ta vodorod bog'i bo'lib, uning 1/3 qismi guanin va sitozin orasida joylashgan bo'lsa, DNKdagi guanin nukleotidlari sonini toping.  
 A) 60 B) 20 C) 40 D) 80

- 41.** O'simlik sitoplazmasida achish jarayonida 160 kJ energiya ATF to'plangan bo'lsa, mitokondriyada qancha energiya (kJ) issiqlik sifatida tarqalgan (a) va shu vaqt davomida xloroplastda hosil bo'lган ATF ga qancha energiya (kJ) bog'langan (b)?  
 A) a-2560; b-91200  
 B) a-4640; b-4320  
 C) a-3480; b-3240  
 D) a-2320; b-86400
- 42.** Quyidagi berilgan organizmlar orasidan urug'lanishi va embrional rivojlanishi ona organizmida sodir bo'ladiganlarini ajrating.  
 1) qoraqt; 2)chayon; 3) baqa; 4) ondatra; 5) yexidna; 6) qiziltosh  
 A) 2,3 B) 3,5 C) 4,6 D) 2,4
- 43.** Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari idioadaptatsiyalar natijasida paydo bo'lgan?  
 1) suyakli baliqlar; 2) pardaqanotlilar; 3) suluv ninachi; 4) yassi chuvalchanglar; 5) toq tuyoqlilar; 6) oltinrang krot; 7) mol kanasi  
 A) 3,6,7 B) 1,4,5,6 C) 3,4,5 D) 1,2,3,6
- 44.** Xantoria haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.  
 A) avtotrof oziglanadi  
 B) tarkibida murein uchraydi  
 C) xitin qobiqli hujayralari bor  
 D) vegetativ usulda ko'payadi
- 45.** Paleozoy (a) va melezoy (b) eralariga xos biologik progresslarni aniqlang.  
 1) qushlarda to'rt kamerali yurak ; 2) qirqquloqsimonlarda urug';  
 3) hasharotlarda qanon; 4) stegosefallarda besh barmoqli oyoqlar;  
 5) sutemizuvchilarida jun qoplamli; 6) sudralib yuruvchilarda qalin po'choq bilan qoplangan tuxum  
 A) a-3,4; b-1,2 B) a-2,6; b-1,5 C) a-1,4; b-5,6 D) a-1,3; b-2,5
- 46.** Biosfera tirik muddasining funksiyasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 1) temir bakteriyalarining xemosintezi qilishi; 2) atmosfera tarkibida kosmik chang zarralarining uchrashi; 3) hayvonlarning kislorod yutib CO<sub>2</sub> chiqarishi; 4) vulqonlarning otilishidan tog' jinslarining hosil bo'lishi; 5) geterotroflarning tayyor organik modda bilan oziqlanishi; 6) ildizoyogli sodda hayvonlarda kalsiyning to'planishi  
 A) 1,2,3 B) 2,4,5 C) 1,3,6 D) 4,5,6
- 47.** Abiotik omillarning ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.  
 a) namlik; b) topografik;  
 1) odamlarda gipoksiya belgilarinining paydo bo'lishi; 2) terida melanin pigmentining hosil bo'lishi; 3) hasharotlarda nafas teshiklarining klapanlar bilanbekishi; 4) ko'pchilik cho'lida yashaydigan hayvonlarning tunda faol bo'lishi; 5) tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlarning ko'p bo'lishi  
 A) a-3,4; b-1,5 B) a-2,5; b-3,4 C) a-2,4; b-3,5 D) a-1,5; b-3,4
- 48.** Qaysi organizmlarning genotipini fenotipi asosida aniqlash mumkin?  
 1) yong'oqsimon tojli tovuq; 2) sariq burushgan donli no'xot; 3) oddiy tojli tovuq; 4) yashil silliq donli no'xot; 5) qizil ko'zli, qora rangli tanali urg'ochi pashsha; 6) dukkagi bo'g'imli, kalta moyali no'xot; 7) qora tanali, oq ko'zli urg'ochi pashsha  
 A) 3,6,7 B) 2,6,7 C) 1,4,5 D) 1,2,5
- 49.** Odamning ko'payishiga xos bo'lмаган ma'lumotlarni aniqlang.  
 A) Tuxumdonda bir juft bo'lib, tuxum hujayra va estrogen ishlab chiqaradi.  
 B) Homila bir hafta davomida tuxum yo'lida, ikkinchi haftadan boshib bachadonda 9 oy rivojlanadi.  
 C) Bachadonda bo'shilig'iga o'tgan homilaning tashqi qismidan mahsus hujayralar birikmasi hosil bo'lib, u orgali homila bachadon devoriga birikadi.  
 D) X xromosomal spermatozoid va Y xromosomal tuxum hujayra qo'shilishidan erkak organizm rivojlanadi.
- 50.** Il qon guruhiga ega rezus musbat, sog'lom o'g'il bolaning katta qon aylanish doirasigi arteriyalardagi qon plazmasida qanday muddalar bo'ladi?  
 A) antitanalar, insulin, agglutinin  $\beta$ , gemoglobin, glyukoza, fermentlar  
 B) gormonlar, vitaminlar, antitanalar, glyukoza, agglutininogen A  
 C) antigemofil omil, agglutinin  $\beta$ , gormonlar, vitaminlar, rezus omil  
 D) aminokislot, mochevina, kreatinin, tiamin, agglutinin  $\beta$
- 51.** Odamdag'i o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.  
 1) vegetativ nerv sistemasini orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirok etadi  
 A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
- 52.** Odamning bosh miyasiga xos bo'lмаган ma'lumotni aniqlang.  
 A) Bosh miya katta yarimsharlaringin sezish zonasini hujayralari sezgi organlaridan kelayotgan impulslarini qabul qiluvchi oly nerv markazi hisoblanadi  
 B) Bosh miyaning stvol qismidagi nerv hujayralari shartsiz reflekslarning nerv markazi hisoblanadi  
 C) Bosh miya shikastlanganda qo'l-oyoq tonusi pasayib, falajlangan oyoq harakatsiz osilib qoladi  
 D) Uzunchoq miyanadan chiquvchi adashgan nerv tolasi parasimpatik nerv sistemasining bir qismi bo'lib, qorin bo'shilig'ining yuqori qismida joylashgan organlar ishini boshqaradi
- 53.** Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.  
 A) Terining derma qavatida sovuqni va siyapalashni sezuvchi retseptorlar issiqni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.  
 B) Gipermetrioya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.  
 C) Qulogning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida perilimfa, parda labirinti ichida endolimfa suyuqligi bo'ladi.  
 D) Harakat analizatorining oly nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.
- 54.** Gidrasimonlar qaysi hayvonlardan kelib chiqqan (a), gidrasimonlardan qaysi hayvonlar (b) kelib chiqqan?  
 A) a- koloniya bo'lib yashovchi geterotrof bir hujayralilardan; b- korall poliplar  
 B) a- koloniya bo'lib yashovchi poliplardan; b- meduzalar  
 C) a- yashil pigmentga ega bo'lмаган koloniya bo'lib yashovchi ko'p hujayralilardan; b- meduzalar  
 D) a- koloniya bo'lib yashovchi avtotrof bir hujayralilardan; b- meduzalar
- 55.** Tanasi boshko'krak, qorin bo'limlardan iborat mozaik ko'rish xos bo'lgan organizmlarni aniqlang.  
 1) sariq falanga; 2) buzoqbosh; 3) zorka; 4) langust; 5) krevetka; 6) trixogramma; 7) drozofila  
 A) 4,5 B) 6,7 C) 2,3 D) 1,2
- 56.** Bosh skeleti miya qutisi, jag'lar, jabra ravoqlari va jabra qopqog'idan tashkil topgan baliqlarni aniqlang.  
 1) beluga; 2) qilquyruq; 3) gigant akula; 4) tikandum skat; 5) oqcha; 6) dengiz tulki  
 A) 3,4,6 B) 2,5,6 C) 1,2,5 D) 3,4,5
- 57.** Jag'larida kurak, qoziq va oziq tishlari mavjud hayvonlarni aniqlang.  
 1) latcha; 2) ondatra; 3) norka; 4) qashqaldoq; 5) nutriya; 6) tovushqon; 7) sug'ur; 8) tiyin; 9) yumronqoziq; 10) olaqo'zan  
 A) 1,3,10 B) 2,5,7 C) 4,9,10 D) 6,7,8
- 58.** Fototrof organizmlarda parazitlik qiluvchi, hujayra qobig'i xitin muddadan iborat organizmlarni belgilang.  
 1) gommoz qo'zg'atuvchisi; 2) vertitsillium; 3) zang zamburug'i;  
 4) nematoda; 5) qorakuya; 6) nozema; 7) tripanosoma  
 A) 4,6 B) 1,6 C) 3,7 D) 2,5
- 59.** Prokariot hujayraga oid to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.  
 1) tugunak bakteriyasida membrana sitoplazmani hujayra qobig'iidan ajratib turadi; 2) nostokning sharsimon hujayrasida ribosoma, halqasimon DNK va mezosoma mavjud; 3) xrokkok sentropiazmasidagi xllorof birlamchi uglevod sintezini amalga oshiradi; 4) ossillatoriya hujayralarining eni bo'yidan uzun bo'ladi; 5) pichan bakteriyasida irlsiy axborot sitoplazmadagi membrana bilan o'ralgan halqasimon polinukleotidda joylashgan; 6) prokariot hujayrada zaxira muddalar sifatida polisaxaridlar va yog'lar to'planadi  
 A) 3,6 B) 1,6 C) 2,5 D) 3,4
- 60.** Hujayra qobig'i sellyulozadan iborat organizmlarga zarar keltiruvchi, hujayra qobig'i murein muddasidan iborat organizmlarni aniqlang.  
 1) gommoz qo'zg'atuvchisi; 2) nozema; 3) vertitsill; 4) agrobakterium; 5) leyshamiya; 6) zang zamburug'i; 7) tamaki mozaikasi  
 A) 6,7 B) 2,5 C) 3,6 D) 1,4
- 61.** Organogenez (I) va gametogenez (II) jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlang.

- 1) o'zak organlar majmui hosil bo'ladi; 2) yetilish davrida hujayralar meyoz usulida ko'payadi; 3) ektodermadan nevr nayi vujudga keladi; 4) spermatogenezning o'sish davrida hujayralar tez kattalashadi; 5) endodermadan ayirish organlari rivojlanadi; 6) qushlarning ovogenezida shakllanish davri bo'ladi
- A) I-1,5; II-2,4  
B) I-2,4; II-1,5  
C) I-1,3; II-2,6  
D) I-2,6; II-1,3
62. Bir-biriga yaqin turlardan tashkil topgan sistemali birlikka mansub toza liniyalarni aniqlang.
- 1) jaydari g'o'za; 2) Meksika g'o'zasi; 3) kanop; 4) Misr g'o'zasi; 5) "Yulduz"; 6) "Buxoro-9"; 7) "Omad"; 8) "Toshkent-1"; 9) bo'ritaroq; 10) "Sangzor"
- A) 5,6,7 B) 1,2,4 C) 7,8,10 D) 1,3,9
63. BamHI restriktazasi GGATCC nukleotidlardan ketma-ketligini tanib, GG nukleotidlari orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 134,3 nm uzunlikdagi DNK molekulasi BamHi restriktazasi orqali A,B,C,D,E bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNK molekulusidagi vodorod bog'lar sonidan 4% ga kam. Agar nukleotidlardan orasidagi masofa 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, dastlabki DNK molekulasi tarkibidagi nechta vodorod bog'lari A va T nukleotidlari orasida joylashgan?
- A) 480 B) 354 C) 370 D) 320
64. Ildizdagi murtakdan yangi novda hosil qiladigan, barglari murakkaab o'simliklar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
- 1) shirinmiya; 2) terak; 3) na'matak; 4) olma; 5) o'rik; 6) gilos; 7) yantoq
- A) 4,6 B) 2,7 C) 3,5 D) 1,3
65. Quyidagi meva turlari qaysi o'simlik navlariga xos ekanligini to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
- a) danakli meva; b) rezavor meva; c) don meva; d) qovoq meva; e) ko'sak meva
- 1) qozidastor; 2) Namangan; 3) Zarafshon; 4) gultish; 5) "Samarqand-3"; 6) bargi; 7) buvaki; 8) sanzor; 9) Namangan-34
- A) a-3; b-1,4,6; c-8; d-7  
B) a-3; b-1,4,7; c-8; d-2,9  
C) a-1; b-4,5; c-8; d-7  
D) a-3; c-8; d-6; e-9
66. "Gullari mayda, bir yoki ikki jinsli, gulkosachabarglari va gultojibarglari beshtadan, ayimlarida gulqo'rg'oni yaxshi taraqqiy etmagan" Ushbu ta'rif qaysi oila uchun xos ekanligini aniqlang.
- A) bug'doydoshlar B) ziradoshlar C) sho'radoshlar D) piyozdoshlar
67. Yuksak o'simlikning ikkinchi nomi va qaysi turkumga mansubligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
- A) qizilmiya-shirinmiya-burchoqdosh  
B) meksika g'o'zasi-oddiy g'o'za-g'o'za  
C) yapon laminariysi-dengiz karami-laminariya  
D) oq shuvog-turon shuvog i-qoqio 'tdosh
68. Spirogira (I) va ossillatoriya (II) uchun xos bo'lgan belgilarni toping.
- 1) hujayra markazi xujayra bo'linishida ishtirot etadi; 2) tarkibida xlorofil pigmenti mayjud; 3) erkin azotni o'zlashtiradi; 4) irlsiy material yadroda joylashgan; 5) donador endoplazmatik to'nda oqsillar sintezlanadi; 6) mitokondriyada kislordilli oksidlanish sodir bo'ladi
- A) I-3,6; II-4,5 B) I-1,4; II-5,6 C) I-3,5; II-2,4 D) I-3,6; II-2,4
69. Qarag'aytoifa bo'limiga mansub barcha o'simliklar haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
- A) Tuxum xujayrasи urug' chili qubbalaridagi arxegoniya yetiladi  
B) Urug' chili qubbalaridagi tangachalarida 2 tadan chang donasi yetiladi  
C) Hayotiy shakli daraxti, buta va o't osimliklardan iborat bo'lib, urug'i qubbalarida ochiq holda yetiladi  
D) Barglari ochi yashil tusda, ignasimon bo'lib novdada ikkitadan bo'lib joylashadi
70. Dala qirqbo'g'im tushunchasi bilan mantiqiy bog'liq bo'lмаган atamalarni aniqlang.
- 1) urug'; 2) ildizpoya; 3) ikki jinsli gametofit; 4) sporofill; 5) ayrim jinsli gametofit; 6) arxegoniya; 7) urug'kurtak; 8) endosperm; 9) anteridiy; 10) zigota; 11) spora beruvchi boshoq; 12) sorus
- A) 2,3,5,9,11  
B) 1,3,7,8,12
- C) 1,5,7,10,12  
D) 4,5,6,7,9,10
71. Stabillashtiruvchi tanlanishga xos bo'lмаган xususiyatlarni ko'rsating.
- 1) yangi turlarning paydo bo'lishiha xizmat qiladi; 2) o'zgargan muhit sharoitida namoyon bo'ladi; 3) turg'un muhitida yashayotgan organizmlarning moslanuvchanligini ta'minlaydi; 4) turg'un muhitida o'zgargan organizmlarning qirilishiga olib keladi; 5) reaksiya normasini saqlagan organizmlar soni ortadi; 6) reaksiya normasini saqlagan organizmlar qiriladi
- A) 2,4 B) 3,5 C) 3,4 D) 1,6
72. Divergensiya (a) va konvergensiya (b) hodisalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
- A) a-odam va boshqa hayvonlar gemoglobin zanjiridagi aminokislotalar tarkibidagi farq; b-ko'rshapalak va qushlarning qanoti  
B) a-dengiz toshbaqasi va delfinlarda oyoqlarning eshkaksimon bo'lishi; b-boychechak turkumiga mansub 30 ga yaqin turlarning mayjudligi  
C) a-ixtiazavr va sutevizuvchilaridan delfinning tana tuzilishning o'xshashligi; b-delfinning oldindi oyog'i suzishga, otning oldindi oyog'i chopishga moslashganligi  
D) a-xaltali krot, oddiy krot tashqi qiyofasining o'zaro o'xshashligi; b-chigirkta oyog'ining sakrashga, suv qandalasi oyog'ining suzishga moslashganligi

**KIMYO**

73. Qaysi karbon kislotanining 0,6 moli tarkibida 14,4 g uglerod atomlari bo'ladi?
- A) moy kislotा  
B) propan kislotা  
C) chumoli kislotা  
D) sirka kislotা
74. Yodolda uglerodning oksidlanish darajalari yig'indisi nechaga teng?
- A) +2 B) +6 C) +5 D) 0
75. Azotning o'zlashtirilishida va organizmdagi oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida katta ahamiyatga ega metallni aniqlang.
- A) Co B) Fe C) Cu D) Mo
76. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 3700 ta azot atomi bor bo'lsa, nukleotid tarkibida nechta timin bor? (nukleotidlarning 20% ini guanin tashkil etadi)
- A) 200 B) 300 C) 350 D) 250
77. Fosfor mo'l miqdordagi kislordoda yondirilganda olingan oksid 200 g 9,8% li fosfat kislotा eritmasisida eritilganda fosfat kislotা miqdori 3 marta ortdi. Olingan eritmaga o'yuvchi natriy eritmasidean 540 g qo'shilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang. Ishqor eritmaside suvning massasi NaOH massasidan 6,5 marta katta.
- A) 72 B) 98,4 C) 14,2 D) 85,2
78. Maltoza gidrolizidan olingan glukoza massasi boshlang'ich disaxarid massasidan 13,5 grammga ortiq bo'lsa, undan olingan moy kislotanining yetarli miqdordagi Na metali bilan o'zaro ta'siridan qancha hajm (l,n.sh.) gaz ajraladi.
- A) 16,8 B) 33,6 C) 8,4 D) 22,4
79. Propanol, fenol va sirka kislotadan iborat aralashma Na metali bilan ishlanganda 8,96 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashma 200 g NaOH eritmasi (NaOH ning foiz konsentratsiyasi suvnikidan 84% ga kam) bilan reaksiyaga kirisha oladi. Xuddi shunday boshlang'ich aralashma bromli suvdan o'tkazilganda 66,2 g cho'kma tushishi ma'lum bo'lsa, dastlabki aralashmadagi fenol massasini (g) aniqlang.
- A) 47 B) 18,8 C) 37,6 D) 9,4
80. Oltinchi energetik pog'ona (qavat) ga maksimal sig'ishi mumkin bo'lgan elektronlar sonini aniqlang.
- A) 72 B) 32 C) 36 D) 54
81. Berilgan kompleks birikmalardan neytral kompleksni tanlang.
- A)  $[Co(NH_3)_3(NO_2)_3]$   
B)  $[Ag(NH_3)_2Cl]$   
C)  $K_4[Fe(CN)_6]$   
D)  $(AlOH)_3(PO_4)_2$
82. Etilenglikolga 1:1 nisbatda xlorid kislotা ta'sir ettirilganda olingan mahsulotni aniqlang.

- A) etilenxlorigidrin  
 B) 1,2-dixloretan  
 C) vinilxlorid  
 D) 1-xloretandiol-1,2
83. O'zaro izomer bo'lган иккита aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlangunda 1,4 mol  $\text{CO}_2$  gazi, 0,2 mol benzoy kislota va 0,4 mol tereftal kislota hosil bo'ldi. Benzoy kislotani hosil qilgan aromatik uglevodorod massasini (g) aniqlang.  
 A) 38 B) 45 C) 26,8 D) 53,6
84. Dissotsiatsiyalanish darajasi 96% bo'lган natriy nirtat tuzi eritmasida 2400 ta ion bor bo'lsa, nechta dissotsiatsiyalanmagan tuz molekulasi bor? ( suvning dissotsiatsiyalanishi hisobga olinmasin)  
 A) 20 B) 50 C) 30 D) 60
85. Qaysi xloridlar suvda erimaydi?  
 A)  $\text{AgCl}$ ,  $\text{FeCl}_3$   
 B)  $\text{MgCl}_2$ ,  $\text{CuCl}_2$   
 C)  $\text{AlCl}_3$ ,  $\text{PbCl}_2$   
 D)  $\text{PbCl}_2$ ,  $\text{Hg}_2\text{Cl}_2$
86. Necha gramm triakontan tarkibida  $0,15 \cdot N_A$  ta uglerod atomi bor?  
 A) 4,22 B) 6,33 C) 8,44 D) 2,11
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 20% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stekiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lган gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.  
 A) 3/16; 9/16; 1/4  
 B) 1/9; 2/3; 2/9  
 C) 3/10; 3/10; 2/5  
 D) 1/4; 1/4; 1/2
88.  $^{102}\text{No} \rightarrow {}^{96}\text{Cm} + x^4\text{He} + y\text{B}$  yadro reaksiyasida 12,7 mg No yemirilishidan hosil bo'lган elektronlar sonini aniqlang.  
 (a-x=249; x+y=9)  
 A)  $36,12 \cdot 10^{23}$   
 B)  $12,04 \cdot 10^{19}$   
 C)  $18,06 \cdot 10^{18}$   
 D)  $96,32 \cdot 10^{18}$
89. 0,03 mol  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  va  $\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$  aralashmasining to'liq degidratlanishidan 0,28 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.  
 A) 2:1 B) 2,5:1 C) 1:1 D) 1:3
90. Tarkibida massa bo'yicha 28% Me, 24% S va 48% O bo'lган moddaning formulasini aniqlang.  
 A)  $\text{FeSO}_4$   
 B)  $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3$   
 C)  $\text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3$   
 D)  $\text{Na}_2\text{SO}_3$
91.  $\text{A}_{(g)} + \text{B}_{(g)} \leftrightarrow 2\text{C}_{(g)}$  sistemada boshlang'ich moddalardan 3 mol/l dan olingan. Ushbu sistemada kimyoviy muvozanat ( $K_m=4$ ) qaror topgandan so'ng moddalarning konentratsiyalari yig'indisini (mol/l) aniqlang  
 A) 12 B) 6 C) 10 D) 8
92. Qaysi kislotaning eritmadagi konetratsiyasi ( $\omega$ ) 40% dan ortib ketsa, portlab parchalanadi?  
 A) xlorat kislota  
 B) perxlorat kislota  
 C) xlorit kislota  
 D) gipoxlorit kislota
93. Tarkibida noma'lum modda saqlangan 240 g eritmaning molyarligi va molyalligi 5 ga teng bo'lsa, noma'lum moddani aniqlang. ( $\rho=1,2 \text{ g/ml}$  deb hisoblansin)  
 A)  $\text{H}_2\text{SO}_4$   
 B)  $\text{KOH}$   
 C)  $\text{NaOH}$   
 D)  $\text{HCl}$
94. 111 g kalsiy xlorid eritmasiga tegishli miqdorda 40% li kaliy fosfat eritmasi qo'shilganda hosil bo'lган eritmaning massasi dastlabki kalsiy xlorid eritmasidan 75 g ga ko'p bo'ldi. Cho'kmaga tushgan kalsiy fosfat massasini (g) aniqlang.
- A) 12,4 B) 62 C) 22,4 D) 31
95. Eritmadagi  $\text{H}^+$  ionlari  $\text{OH}^-$  ionlaridan  $10^{10}$  marta ko'p bo'lsa, eritmaning pOH qiymatini toping.  
 A) 10 B) 12 C) 5 D) 4
96. Quyidagi qaysi moddalar alyuminiy xlorid bilan ta'sirlashmaydi?  
 A) natriy sulfid  
 B) natriy sulfat  
 C) natriy karbonat  
 D) natriy gidroksid
97. Quyidagi birikmalar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida qanday vazifani bajaradi?  
 1)  $\text{Cl}^-$ ; 2)  $\text{Fe}^{2+}$ ; 3)  $\text{S}^{2-}$ ; 4)  $\text{NO}_2^-$ ; 5)  $\text{SO}_3^{2-}$ ; 6)  $\text{Cu}^{2+}$ ;  
 a) ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi; b) faqat oksidlovchi; c) faqat qaytaruvchi  
 A) 1-a; 2-b; 3-c; 4-a; 5-a; 6-a  
 B) 1-b; 2-a; 3-b; 4-b; 5-c; 6-b  
 C) 1-c; 2-a; 3-c; 4-a; 5-a; 6-b  
 D) 1-c; 2-c; 3-a; 4-b; 5-a; 6-c
98. 0,3 mol  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  tarkibli kristallogidrat ma'lum miqdordagi suvda eritilib 1,5 molyalli eritma hosil bo'lguna qadar 10 amper tok kuchi bilan 19300 sekund davomida elektoliz qilindi. Kristallogidrat necha gramm suvda eritilganligini aniqlang?  
 A) 246,4 B) 96,4 C) 164 D) 182
99. Noma'lum III valentli element oksidining ekvivalent molyar massasi 17 (g/mol-ekv) ga teng bo'lsa, oksidning molyar massasini (g/mol) aniqlang.  
 A) 102 B) 152 C) 110 D) 76
100. Natriy gidrokarbonat va kristall soda aralashmasi qizdirilganda massasi 31,8 g bo'lган qattiq qoldiq hosil bo'ldi. Agar bunda 2,24 l (n.sh)  $\text{CO}_2$  ajralgan bo'lsa, dastlabki tuzlar aralashmasi massasini (g) hisoblang.  
 A) 74 B) 38 C) 67,8 D) 48,6
101. Furanga 300 °C va  $\text{Al}_2\text{O}_3$  katalizatori ishtirokida 33,6 litr (n.sh)  $\text{NH}_3$  ( $\eta=75\%$ ) qo'shildi. Olingan mahsulotga ishqoriy muhitda yod ta'sir ettirilganda olingan yodolning ( $\eta=80\%$ ) massasini (g) aniqlang.  
 A) 320,5 B) 425,6 C) 513,9 D) 252,8
102. Xlorofill tarkibida 3% ni tashkil qiladigan metalldan olingan nitrat tuzining kristallogidrati tarkibida kislorod atomlari soni vodorod atomlari soniga teng bo'lsa, kristallogidratning molyar massasini (g/mol) hisoblang.  
 A) 156 B) 256 C) 200 D) 176
103.  $x\text{CaCO}_3 = y\text{CaCO}_3 + z\text{CaO} + z\text{CO}_2$  ifodada x, y, z, z koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 5:1:4:4  
 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.  
 A) 60 B) 80 C) 75 D) 50
104. Atomlari soni teng bo'lган argon, azot va silan aralashтиrildi. 1,7 mol shunday gaz aralashmasidagi silanning hajmini (l,n.sh) aniqlang.  
 A) 4,48 B) 22,4 C) 11,2 D) 5,6
105. 10,96 g  $\text{Ca}_3\text{N}_2$  va  $\text{CaH}_2$  dan iborat aralashma teng ikki qismiga ajratildi. Aralashmaning 1-qismiga yetarli miqdorda suv ta'sir ettirilganda 0,16 mol gazlar ajraldi. 2- qismiga mo'l miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirilganda hosil bo'ladigan  $\text{CaCl}_2$  ning miqdorini (mol) hisoblang.  
 A) 0,12 B) 0,04 C) 0,02 D) 0,06
106. Quyidagi tuzlar gidrolizga uchraganda neytral muhit hosil qiladiganlarini ajrating.  
 1)  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$ ; 2)  $\text{K}_2\text{SO}_4$ ; 3)  $\text{CH}_3\text{COONH}_4$ ; 4)  $\text{NaNO}_2$ ; 5)  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$ ; 6)  $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}$   
 A) 2, 6 B) 1, 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 1, 3
107. 1827-yil V.Seyze tomonidan platina Pt(II) ning  $\pi$ -kompleksi olindi.  
 $\text{CH}_2=\text{CH}_2 + \text{K}_2[\text{PtCl}_4] + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Seyze tuzi} + \text{KCl}$   
 Ushbu reaksiyaga muvofiq Seyze tuzining formulasini belgilang.  
 A)  $\text{K}/[\text{C}_2\text{H}_5\text{PtCl}_3]\cdot\text{H}_2\text{O}$   
 B)  $\text{K}/[\text{C}_2\text{H}_4\text{PtCl}_3]\cdot\text{H}_2\text{O}$   
 C)  $\text{K}/[\text{C}_2\text{H}_4\text{PtCl}_4]\cdot\text{H}_2\text{O}$   
 D)  $\text{K}/[\text{C}_2\text{H}_4\text{PtCl}_2]\cdot\text{H}_2\text{O}$

- 108.** Etan va butan aralashmasi yondirilganda hosil bo'lgan karbonat angidrid miqdori suvning miqdoridan 0,6 molga kam, sarfangan kislorod miqdori esa hosil bo'lgan karbonat angidrid miqdoridan 1,3 molga ko'p bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi butanning miqdorini (mol) aniqlang.
- A) 0,4   B) 0,3   C) 0,5   D) 0,2